

## OLIMPIADALAR INNOVATSION O'QITISH USULI SIFATIDA

**Dosjanov Baxitjan Muratovich –***Anatomiya va fiziologiya kafedrasi o'qituvchisi***Yeralieva Guljaxon Alimbaevna –***Sport tibbiyoti va bioximiya kafedrasi o'qituvchisi**O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport Universiteti*

**Annotation.** O'quv jarayonida mashg'ulotlarni olib borishni interaktiv shakllaridan foydalanish talabalarda kasbiy va umummadaniy kompetensiyalarni shakllantirishga yordam beradi. O'qitish jarayonida interaktiv usullarni qo'llashga tayangan o'quv jarayoni, guruhning barcha talabalarini o'quv materialini o'zlashtirishga jalb etish asosida tashkil qilinadi. Birgalikdagi faoliyat degani, bu mashg'ulot davomida har bir talaba o'zining bilimi, faoliyat yo'llari bilan fikr almashadi, vaziyatni hal etishda o'zining individual hissasini qo'shadi.

**Kalit so'zlar.** Pedagogik texnologiyalar, ta'lif, yangi pedagogik texnologiya, olimpiada, talaba

Pedagogik faoliyatda talabalarning o'quv faolligini rag'batlantirishning ko'plab faol shakllari va usullari mavjud. Faol o'qitish usullari - talabalarni o'quv jarayoniga yuqori darajada jalb qilish, ularga qo'yilgan vazifalarni hal qilishda ularning bilish va ijodiy faolligini faollashtirish bilan tavsiflangan usullardir. Ularga o'quv ishbilarmonlik o'yinlari, seminarlar, aniq vaziyatlarni tahlil qilish usuli, loyihalar usuli, olimpiadalar o'tkazish va boshqalar kiradi. Bizning fikrimizcha, olimpiadalarga talabalarning o'quv va kognitiv faoliyatini stimullahga qaratilgan usul sifatida adabiyotlarda yetarlicha e'tibor berilmagan [2]. Olimpiada - bu talabalarning musobaqasi bo'lib, unda ishtirokchilardan o'rganilayotgan fanlar bo'yicha bilim va ko'nikmalarni namoyish yetish talab yetiladi. Agar talabalarni olimpiadalarga mustaqil tayyorgarligi nazorat qilinsa va kafolatlansa, u o'qitishning faol usuli sifatida baxolanadi, ishning o'zi esa tadqiqot xarakteriga ega bo'ladi.

Talabalarda kompetentlikni, ya'ni uning shaxsiy xususiyatlarining - bilim, qobiliyat, ko'nikma, tajriba, iste'dod, qiymat-semantik orientatsiyasining yig'indisini shakllantirish o'z mutaxassisligi bo'yicha ishlashga tayyorligini ta'minlaydi [1]. Bu xususiyatni rivojlantirish uchun ilgari qo'yilgan talablar oliy ta'lif muassasalarida shunday ta'lifni tashkil etish vazifasini qo'yadiki, unda talaba nafaqat kasbiy ta'lif oladi, balki o'z-o'zini rivojlantirish, faol ta'lif va kognitiv faoliyat bilan shug'ullanish, o'z qobiliyatlarini ochish va ularni shakllantirishga intiladi.

Olimpiadalarda ishtirok etish talabalarda aynan shu sifatlarni rivojlanishini rag'batlantiradi. Uning ahamiyati nafaqat natijalarda, balki jarayonning o'zida

sub'ektlar shakllanadi, tasavvur rivojlanadi, ma'naviy madaniyat va zakovat oshadi [2].

Olimpiadalarning ahamiyati va afzalliklariga qaramay, unda ishtirok etish uchun o'qituvchilar talabalarini o'zлari izlashlari kerak, ma'lumotlar berish kerak va agar talaba ishtirok yetishni xohlasagina, o'qituvchi va talaba hamkorligi yuzaga keladi, ular o'quv jarayonidan tashqari bo'sh vaqtlar ichida tayyorlana boshlaydilar. Olimpiadalarga bo'lган bunday passiv yondashuv iste'dodli, ijodkor talabalarini keng ko'lamda kashf etish imkonini chegaralaydi. Shunga asoslanib, o'quv jarayonini ta'limning olimpiada shaklini joriy etish orqali faollashtirish axamiyatlidir.

Olimpiadalar quyidagi imkoniyatlar tufayli o'quv jarayonini yaxshiroq tashkil yetishga yordam beradi:

- kafedralar, alohida o'qituvchilar o'rtasida tajriba almashish, ular o'rtasidagi aloqalarni rivojlanishi;
- o'qituvchilarning malakasini oshishi;
- o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi aloqani kuchayishi;
- talaba qobiliyatini ochib berishga hissa qo'shishi;
- bilimga intilishni rivojlantirish va hokazo.

Olimpiadaning ijodiy ta'lim muhiti – bu, o'z faoliyatlarini jamoviy o'qitishga va ijodiy, konstruktiv muvaffaqiyatlarga erishishga qaratilgan bellashuvlar asosiga tayanuvchi o'quv jarayonining ishtirokchilari yig'indisidir. Bu muhit talabalarning yaratuvchanlik va kasbiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratadi.

Olimpiyada harakati (o'qitishni tashkil etish shakli sifatida) - ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari (o'qituvchilar va talabalar) ning o'quv maqsadlariga erishishga qaratilgan jamoaviy va musobaqaviy ta'limga asoslangan faol ijodiy yaratuvchanlik faoliyatidir.

Oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayoniga kiritilgan olimpiyada harakati quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- 1) olimpiada harakatining barcha tarkibiy qismlarini ta'lim, fan va ishlab chiqarishni integratsiyalash vazifalarini yechimi bilan o'zaro bog'lash;
- 2) olimpiadaning mikroguruuhlarining va mustaqil ishtirokchilarning faoliyatini rejalashtirishda ilmiy jixatga qat'iy rioxasi qilish;
- 3) ishtirokchilarning individual va jamoaviy shakllarini uyg'unlashtirish, shaxsning yaratuvchanlik imkoniyatlari asosida mustaqil ta'lim vositalarini tanlash;
- 4) ichki motivatsiya va faoliyatni xis etish asosida talabaning mutaqil ta'limga tayyorligini rivojlantirishga e'tibor qaratish.

Ta'limni tashkil etishning bunday shakli, birinchi navbatda, ma'lum yo'nalishdagi ta'lim dasturini qisqa vaqt ichida muvaffaqiyatli o'zlashtira oladigan talabalarни mustaqil faoliyatiga va individual ta'lim shaklliga e'tiborni kuchaytirishni nazarda tutadi.

Olimpiada harakatining an'anaviy tarkibiy qismlari:

- olimpiada mikroguruhlari - olimpiada muxitining eng muhim qismi xisoblanib, talabalar, o'qituvchilar tashabbuslari bilan mikro jamiyatlar tashkil etiladi, ularda pedagog "tenglar orasida katta" tamoyili asosida harakat qiladi;
- guruhlarda ijodiy mashg'ulotlar o'tkazish, bunda o'qituvchi ijodiy faoliyat yo'nalishlarini belgilaydi va talabalar jamoasini o'ziga ergashtiradi;
- ilmiy jamiyat, bu yuqori kurs talabalari uchun xos va ilmiy tadqiqot xarakteridagi ijodiy kasbiy vazifalarni hal qilish uchun yaratilgan;
- talabalar uchun norasmiy ta'lim olish imkoniyatini ta'minlaydigan, olimpiada topshiriqlari jamlamasi, ularning yechim variantlari va ijodiy muammoli vaziyatlarni interaktiv muhokamalari mavjud bo'lgan yagona axborot olimpiada tarmog'i.

Talaba olimpiada muammolarini hal qilish uchun ketma-ket uchta tayyorgarlik darajasidan o'tadi, bu quyidagilarni nazarda tutadi:

- birinchi darajada o'rganilayotgan kursni chuqur tushunishni, mavjud bilimlarning nostandard kombinatsiyasini, sub'ektiv ravishda mavjud bo'lgan axborot ko'lамини tahlil qilish va uning yetarlilik shartlarini aniqlashni talab qiladigan murakkablik darajasi yuqori bo'lgan muammolarni hal qilish;
- ikkinchi darajada tanlangan fanga xos vaziyatli vazifalarini shakllantirish va hal qilish;
- uchinchi darajada, kasbiy yo'naltirilgan vaziyatlarni o'rganish va muammoni mustaqil ravishda shakllantirish va uni hal qilishni o'z ichiga olgan ijodiy muammolarni yechish.

Axborot jarayonining asosiy turi yo'naltirilgan bo'lib, ma'lumotlar har bir talabaga uning intellektual imkoniyatlariga muvofiq alohida qismlarda taqdim etiladi, bu o'quv materialida individual rivojlanish sur'atlarini ta'minlaydi. Shu bilan birga, axborot jarayonining tarqoq turi istisno qilinmaydi, bunda xamma talabalarga "o'rtacha" qobiliyatli talaba uchun mo'ljallangan topshiriqlar beriladi va individual xususiyatlar hisobga olinmaydi.

Pandemiya sharoitida o'quv jarayonlarini to'xtashi, olimpiadalarni onlayn shaklda o'tkazilishining rivojlanishiga turki bo'ldi.

Oliy ta'lim muassasalari tomonidan tashkillashtirilgan tibbiyot yo'nalishida ta'lim oluvchi talabalarning Xalqaro onlayn olimpiadasi fanlar bo'yicha bir necha bosqichlar asosida o'tkazildi. Olimpiadani o'tkazish jarayonida test savollari, vaziyatli masalalar, amaliy ko'nikmalar topshiriqlari internet saytlar orqali yaratildi va xavolalar orqali olimpiada ishtirokchilariga yetkazib berildi. Texnik va nazariy jixatdan mukammal yaratilgan rasmiy va oddiy test topshiriqlaridan, vaziyatli masalalarni yetkazib berish usullaridan ta'lim jarayonidan jamoaviy va individual tarzda tadbiq etish va foydalanish talabalarni bilim olishga bo'lgan ishtiyoqlarini o'stirishga xizmat qiladi.

Olimpiada harakatidan ta'lim jarayonini sifatli tashkil etishning shakllaridan biri sifatida foydalanish talabalar tomonidan bilimlarning yanada tizimli va chuqur o'zlashtirilishiga yordam beradi, kasbiy maxoratlar, ularning vakolatlarini samarali shakllantirish va zamonaviy bozor sharoitida ijodiy professional faoliyatga raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash imkonini beradi.

Olimpiada ta'lim shakli sifatida o'quv faolligini oshiradi, bizning maqsadimiz ushbu yondashuvni qo'llab quvvatlashdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mejdunar. nauch.-metod. konf. – SPb, 2008. – S. 125–126. 15. Razvitie tvorcheskix sposobnostey lichnosti v usloviyah olimpiadnogo dvijeniya: materialy mejdunarodnoy nauchno–metodicheskoy konferensii / pod red. Popova A.I. – Tambov : Izd-vo Tamb. gos. texn. un-ta, 2005

2. Popov, A.I. Mekhanika. Reshenie tvorcheskix professionalnyx zadach. V 2-x ch. Rekomendovano UMO po universitetskому politexnicheskому obrazovaniyu dlya napravleniya podgotovki 220600 / A.I. Popov. – Tambov : Izd-vo Tamb. gos. texn. un-ta, 2007. – Ch. 1. – 108 s, Ch. 2. – 80 s.

3. Puchkov N.P., Popov A.I. Olimpiadnoe dvijenie kak forma organizatsii obucheniya v vuze [Tekst]: ucheb.- metod. posobie / N.P. Puchkov, A.I. Popov. – Tambov: Izd-vo Tamb. gos. texn. un-ta, 2009. – 180

4. Puchkov, N.P. Olimpiadnaya sreda kak faktor obespecheniya kachestva podgotovki spesialistov / N.P. Puchkov, A.I. Popov. Vysokie intellektualnye texnologii i innovatsii v obrazovanii i nauke: materialy